# Navoiy viloyatining sanoat ishlab chiqarishi

*(2020- yil yanvar-noyabr)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida viloyatimiz korxonalari tomonidan 59 043,1 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishning fizik hajm indeksi* 108,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi (84,8 %) ni tashkil etdi.




***B**-Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, **C**-Ishlab chiqaradigan sanoat **D**-Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash, **E**-Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish.*

**Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarish, FHI*** *% da*




Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o‘sishining asosiy omili bo‘lib, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda - 3,2 bar. ga va elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalashning - 12,9 % ga va ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning - 8,9 % ga hamda tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatida - 3,9 % ga o‘sishiga xizmat qildi.

***Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi** *ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi, *% da*







Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 530,2 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,4 % ini tashkil etdi.

## Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi




## Ishlab chiqaradigan sanoat




2020- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 50 061,7 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 84,8 % ini tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, *% da*







O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,4 % ni (2019-yilning yanvar-noyabr oylarida - 0,3 %), o‘rta-yuqori texnologiyali - 5,2 % (6,5 %), o‘rta-quyi texnologiyali - 87,8 % (84,4 %) va quyi texnologiyalisi - 6,6 % (8,8 %) ni tashkil etdi.

### Yuqori texnologiyali




### O‘rta-yuqori texnologiyali




### O‘rta-quyi texnologiyali




### Quyi texnologiyali



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 4,8 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 120,7 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 80,0 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 107,0 %), to‘qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,3 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 94,1 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 3,1 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 101,2 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 6,9 % (2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 137,3 %) ni tashkil etdi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

2020- yilning yanvar-noyabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 41,7 ming m³ argon (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 48,5 % ga o‘sgan), 7,9 ming tonna kalsiy xlorid (89,3 %), 61,4 ming tonna yumshoq bug‘doy va spelta uni (18,5 %) ishlab chiqarilib, yuqori o‘sish sur’atlari kuzatildi.

**O‘tgan yilning mos davriga nisbatan,** *% da*

**Argon**




**Kalsiy xlorid**




**Sement**




**Yumshoq bug‘doy va spelta uni**




**Gazsiz suv**




**Suv eritmasidagi ammiak**



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalar tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | 2019- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan o'sish, % da |
|---|---|---|---|
| **Portlandsement,** ming tonna. | 3 390,0 | 3 370,5 | 99,4 |
| **So'ndirilmagan va so'ndirilgan ohak**, tonna. | 51 680,0 | 49 243,0 | 95,3 |
| **Ammoniy nitrat,** ming tonna azot. | 216,2 | 150,3 | 69,5 |
| **Natriy gidroksidi (kaustik soda),** ming tonna. | 18,1 | 75,7 | 417,6 |
| **Kislorod,** ming m³. | 139,9 | 188,7 | 134,9 |
| **Temir beton,** tonna. | 42 784,0 | 20 395,0 | 47,7 |
| **Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni og'irligi 600 g (buxanka),** tonna. | 522,8 | 406,8 | 77,8 |
| **Ishlov berilgan suyuq sut,** tonna. | 1 069,5 | 857,4 | 80,2 |

Texnologik jihozlarni kapital qayta tiklash ishlari, kimyo korxonalarida ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan kislorod 134,9 % ga hamda kaustik soda mahsulotlarida 4,2 bar. ga o'sishi qayd etildi.

Shuningdek, temir beton mahsuloti (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan - 47,7 %) pasayishi kuzatildi.

## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*







Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 280,4 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining (5,5 % ini) tashkil etdi.

2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalash o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,9 % ga oshganligi kuzatildi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi







### Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya,** *mln.kVt/s* | 8 655,0 | 10 619,9 | 1 964,9 |
| **Issiqlik energiyasi,** *ming gkal* | 3 360,6 | 3 150,5 | -210,1 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish







Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 170,8 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini) tashkil etdi.

### Jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi







| Sanoat mahsulotlari | 2019- yil yanvar-noyabr | 2020- yil yanvar-noyabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 13 413,6 | 39 353,7 | 25 940,1 |
| **Xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 22,0 | 9,3 | -12,7 |
| **Boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar,** *tonna* | 29 700,0 | 47 088,9 | 17 388,9 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar 2,9 bar. ga hamda boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig‘ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 58,5 % ga oshganligi kuzatildi.

Shuningdek, xavfli (zaharli) sanoat chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar – 57,9 % ga pasayishi kuzatildi.

**Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish**

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida,iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3 430,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2019- yilning mos davriga nisbatan 2,6 % ga o‘sgan holda, uning jami sanoatdagi ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.




Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino-aroq mahsulotlari va pivo 0,4 % (2019- yil yanvar-noyabr oylarida 0,02 %) ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib, 30,6 % ni, shuningdek, Karmana tumani 17,3 % ni, Xatirchi tumani 14,2 % ni, Qiziltepa tumani 12,2 % ni hamda Navbahor tumani 6,8 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (102,6 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida (107,7 %) hamda Karmana tumanida (104,8 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

| | Mlrd. so‘m | Ulushi, % da | O‘sishi, % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 1 050,1 | 30,6 | 103,6 |
| Navbahor t. | 232,1 | 6,8 | 100,1 |
| Zarafshon sh. | 218,6 | 6,4 | 100,3 |
| Nurota t. | 207,2 | 6,0 | 102,7 |
| Karmana t. | 594,0 | 17,3 | 104,8 |
| Tomdi t. | 35,3 | 1,0 | 107,7 |
| Konimex t. | 80,6 | 2,4 | 104,4 |
| Uchquduq t. | 107,4 | 3,1 | 100,9 |
| Qiziltepa t. | 419,3 | 12,2 | 100,9 |
| Xatirchi t. | 485,6 | 14,2 | 101,3 |

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 36,8 % shuningdek, Karmana tumani 20,8 % ni, Xatirchi tumani 11,3 % ni, Qiziltepa tumani 8,0 % ni hamda Nurota tumani 7,5 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida viloyat o‘sish sur’ati (101,7 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Tomdi tumanida (117,5 %) qayd etildi.

**Hududlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati**

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi, % da | O‘sishi, % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 749,8 | 36,8 | 102,2 |
| Navbahor t. | 111,9 | 5,5 | 103,4 |
| Zarafshon sh. | 99,7 | 4,9 | 95,5 |
| Nurota t. | 152,3 | 7,5 | 104,4 |
| Karmana t. | 422,6 | 20,8 | 106,2 |
| Tomdi t. | 18,3 | 0,9 | 117,5 |
| Konimex t. | 39,0 | 1,9 | 112,5 |
| Uchquduq t. | 48,7 | 2,4 | 102,6 |
| Qiziltepa t. | 163,9 | 8,0 | 85,9 |
| Xatirchi t. | 230,4 | 11,3 | 102,6 |

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatimizda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Navoiy shahriga to‘g‘ri kelib 21,6 % shuningdek, Xatirchi tumani 18,3 % ni, Qiziltepa tumani 18,3 % ni, Karmana tumani 12,3 % ni hamda Navbahor tumani 8,6 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’atida eng yuqori ko‘rsatkich Qiziltepa tumanida (113,7 %) qayd etildi.

## Hududlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

| Hudud | Mlrd. so‘m | Ulushi, % da | O‘sishi, % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy sh. | 300,3 | 21,6 | 107,4 |
| Navbahor t. | 120,2 | 8,6 | 97,3 |
| Zarafshon sh. | 118,9 | 8,5 | 104,7 |
| Nurota t. | 54,9 | 4,0 | 98,3 |
| Karmana t. | 171,4 | 12,3 | 101,5 |
| Tomdi t. | 17,0 | 1,2 | 98,9 |
| Konimex t. | 41,6 | 3,0 | 97,8 |
| Uchquduq t. | 58,7 | 4,2 | 99,6 |
| Qiziltepa t. | 255,4 | 18,3 | 113,7 |
| Xatirchi t. | 255,2 | 18,3 | 100,0 |

## Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 1 192,2 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi tutgan ulushi 2,0 % ni tashkil etdi.

# Navoiy viloyatining shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarish hajmlari

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida)*

| | Mlrd. so'm | Ulushi, % da | O'sishi, % da |
|---|---|---|---|
| Navoiy viloyati | 59 043,1 | 100,0 | 108,8 |
| Navoiy sh. | 49 747,8 | 84,3 | 109,6 |
| Navbahor t. | 457,3 | 0,8 | 104,8 |
| Zarafshon sh. | 287,5 | 0,5 | 116,0 |
| Nurota t. | 252,2 | 0,4 | 103,8 |
| Karmana t. | 6 269,9 | 10,6 | 120,9 |
| Tomdi t. | 40,4 | 0,1 | 113,2 |
| Konimex t. | 360,0 | 0,6 | 114,9 |
| Uchquduq t. | 132,2 | 0,2 | 104,5 |
| Qiziltepa t. | 995,6 | 1,7 | 105,4 |
| Xatirchi t. | 500,2 | 0,8 | 104,7 |

## Navoiy viloyati shahar va tumanlar kesimida ishlab chiqarish fizik hajm indeksi, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning o‘sish sur‘ati *% da*

Sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksining viloyat ko‘rsatkichidan yuqori, Karmana tumaniga (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 120,9 %) hamda Zarafshon shahriga (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 116,0 %) sanoat ishlab chiqarish hajmlari fizik hajm indeksining sezilarli darajada oshganligi bilan izohlashimiz mumkin.

| **Sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi indeksi,** *% da* | **Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishda o‘sish sur’ati,** *% da* |
|---|---|




Iste'mol mahsulotlarini ishlab chiqarish Tomdi tumanida (2019- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 107,7 %), Karmana tumanida ( 104,8 %), Konimex tumanida ( 104,4 %) hamda Navoiy shahrida ( 103,6 %) sezilarli darajada oshdi.

## Navoiy viloyaninig jami sanoat mahsulotlari hajmida shahar va tumanlarning ulushi, % da

Navoiy viloyatida sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng koʻp ulush Navoiy shahri (Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 84,3 %) hamda Karmana (10,6 %), Qiziltepa (1,7 %), Xatirchi ( 0,8 %), Navbahor ( 0,8 %), va Konimex (0,6 %) tumanlari hissasiga toʻgʻri kelmoqda.

Eng past koʻrsatkich esa Tomdi (0,1 %), Uchquduq (0,2 %), Nurota (0,4 %), tumanlariga hamda Zarafshon shahriga (0,5 %) toʻgʻri kelmoqda.






**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi**

*(2020- yilning yanvar-noyabr oylarida, % da)*

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 3 783,5 mlrd. so‘mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 6,4 % ni tashkil etdi.




Shahar va tumanlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Uchquduq tumanida (100,0 %), Tomdi (100,0 %), Nurota (99,4 %), Xatirchi (99,0 %), Navbahor (58,0 %) tumanlarida hamda Zarafshon shahrida (89,7 %) ni tashkil etdi.

Viloyatimizda shahar va tumanlar kesimida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida kichik biznes subyektlarining ulushi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Navoiy shahrida ( 1,6 % ), Karmana ( 15,9 % ), Konimex tumanlarida (31,2 %) tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hudularda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.

**Viloyatimizda faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlikda**
*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)*

Bugungi kunda viloyatimizda 3 252 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 726 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 22,3 % ) Navoiy shahriga, 536 tasi (16,5 %) Karmana tumaniga, 410 tasi (12,6 %) Xatirchi tumaniga hissasiga to'g'ri kelmoqda.




**Viloyatimizda yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlikda**
*(2020- yil 1- dekabr holatiga ko'ra)*



2020- yil yanvar-noyabr oylarida viloyatimizda 840 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, jumladan 174 tasi (jami yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari sonidagi ulushi 20,7 %) Xatirchi tumanida, 126 tasi (15,0 %) Uchquduq tumanida, 113 tasi (13,5 %) Karmana tumanida, 110 tasi (13,1 %) Navoiy shahrida, 91 tasi (10,8 %) Qiziltepa tumanida hamda 88 tasi (10,5 %) Zarafshon shahrida tashkil etildi.

*Navoiy viloyati statistika boshqarmasining*
*sanoat statistikasi bo'limi*
*Tel.: (79) 223-33-29*